



SUN'IY INTELLEKT VA INSON HUQUQLARI: MILLIY VA  
XALQARO YONDASHUVLAR

*Soatova Aziza Sadriddin qizi*

*Termiz davlat universiteti*

*Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabasi*

[azizasoatova011@gmail.com](mailto:azizasoatova011@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida sun'iy intellekt (SI) tizimlarining inson huquqlariga ta'siri va ularni huquqiy tartibga solishdagi dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi, diskriminatsiyani oldini olish va algoritmlarning shaffofligi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada xalqaro tajriba va milliy qonunchilikning sun'iy intellektning inson huquqlariga tahdidini kamaytirishdagi choralari tahlil qilinadi hamda sun'iy intellekt sohasidagi huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt, inson huquqlari, huquqiy tartibga solish, axborot erkinligi, algoritmik adolatsizlik, xavfsizlik, milliy huquqiy normalar, xalqaro huquqiy normalar

**Annotation:** This article analyzes the impact of artificial intelligence (AI) systems on human rights and the pressing issues of their legal regulation in the context of rapid technological development. Particular attention is paid to issues such as the protection of personal data, prevention of discrimination, and transparency of algorithms. The article examines international experience and national legislation aimed at reducing threats posed by artificial intelligence to human rights and puts forward practical recommendations for addressing legal gaps in the field of artificial intelligence.



**Keywords:** *Artificial intelligence, human rights, legal regulation, freedom of information, algorithmic injustice, security, national legal norms, international legal norms.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется влияние систем искусственного интеллекта (ИИ) на права человека и актуальные проблемы их правового регулирования в условиях стремительного развития современных технологий. Особое внимание уделяется вопросам защиты персональных данных, предотвращения дискриминации и прозрачности алгоритмов. В статье рассматривается международный опыт и национальное законодательство, направленные на снижение угроз правам человека со стороны искусственного интеллекта, а также предлагаются практические рекомендации по устранению правовых пробелов в сфере искусственного интеллекта.*

**Ключевые слова:** *Искусственный интеллект, права человека, правовое регулирование, свобода информации, алгоритмическая несправедливость, безопасность, национальные правовые нормы, международные правовые нормы.*

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida Sun‘iyintellekt tizimlari jamiyat hayotining ko‘plab sohalarida faol joriy etilmoqda. Ular davlat boshqaruvi, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, moliya va boshqa yo‘nalishlarda samaradorlikni oshirishga xizmat qilib, insonlarga bir qator qulayliklar yaratmoqda. Shu bilan birga, Sun‘iyintellektdan foydalanish inson huquqlarini ta‘minlash bilan bog‘liq yangi huquqiy va etik masalalarni ham kun tartibiga olib chiqayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, algoritmlar asosida avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilinishi shaxsiy ma‘lumotlarning himoyasi, tenglik prinsipi va axborot erkinligi kabi fundamental huquqlarga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ba‘zi hollarda bunday tizimlar noto‘g‘ri yoki tarfkash natijalar berishi, shuningdek, qaror qabul qilish jarayonining shaffof emasligi fuqarolarning huquqlari buzilishiga olib kelishi ehtimolini oshiradi. Shu sababli Sun‘iyintellektning jamiyatga ta‘sirini nafaqat



texnologik, balki huquqiy jihatdan ham chuqur o'rganish zarur. Shu bilan birga, Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish masalasi xalqaro miqyosda ham muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Amaldagi qonunchilik ko'pincha texnologiyalarning tezkor rivojlanish sur'atlaridan ortda qolishi mas'uliyatni aniqlash, algoritmlarning shaffofligini ta'minlash hamda diskriminatsiya xavfini kamaytirish bo'yicha yangi yondashuvlar ishlab chiqishni talab etadi.

Sun'iy intellekt bugungi kunda eng tez rivojlanayotgan texnologik yo'nalishlardan biri bo'lib, u inson faoliyatining ko'plab sohalariga chuqur kirib bormoqda. Umuman olganda, Sun'iy intellekt inson tafakkuriga xos bo'lgan ayrim jarayonlarni — ma'lumotlarni tahlil qilish, muammolarni hal etish va qaror qabul qilishni — avtomatlashtirishga qaratilgan dasturiy va texnologik tizimlar majmui sifatida talqin etiladi. Texnologiyalar rivoji natijasida Sun'iy intellektning qo'llanish doirasi kengayib, u davlat boshqaruvi, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash va huquqni muhofaza qilish kabi muhim sohalarda asosiy vositaga aylanmoqda. Sun'iy intellektning rivojlanishi bosqichma-bosqich kechgan bo'lib, dastlab oddiy algoritmik tizimlar shaklida paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ekspert tizimlari, mashinaviy o'rganish va hozirgi davrda chuqur o'rganish texnologiyalari asosidagi murakkab tizimlargacha yetib keldi. Ayniqsa, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash imkoniyati Sun'iy intellektni qaror qabul qilish jarayonlarida muhim vositaga aylantirdi. Inson huquqlari esa har bir shaxsga tug'ilganidan beriladigan, uning qadr-qimmatini va erkinligini ta'minlashga qaratilgan asosiy huquq va erkinliklar majmui hisoblanadi. Zamonaviy yondashuvlarda inson huquqlarining universalligi, o'zaro bog'liqligi va bo'linmasligi asosiy tamoyillar sifatida e'tirof etiladi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan birga ushbu huquqlarning mazmuni ham kengayib, "raqamli huquqlar" tushunchasi shakllanmoqda. Sun'iy intellekt va inson huquqlari o'rtasidagi munosabat ikki tomonlama xarakterga ega<sup>1</sup>. Bir tomondan, Sun'iy intellekt texnologiyalari inson huquqlarini ta'minlashga yordam

<sup>1</sup> Yunusov, O. Sun'iy intellektni tartibga solish va milliy qonunchilik. Tashkent, 2021.



berishi mumkin. Masalan, tibbiyotda kasalliklarni erta aniqlash, ijtimoiy xizmatlarni samarali tashkil etish yoki davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish orqali fuqarolarning huquq va manfaatlarini yaxshiroq himoya qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Boshqa tomondan, sun'iy ongdan noto'g'ri yoki nazoratsiz foydalanish ayrim huquqlarning cheklanishiga olib kelishi mumkin. Jumladan, hozirda javobgarlik masalasi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Sun'iy tizim noto'g'ri qaror qabul qilgan yoki zarar yetkazgan holatlarda kim javobgar bo'lishi masalasi aniq belgilab qo'yilmagan. Dasturiy mahsulotni ishlab chiquvchi, uni amaliyotga joriy etgan tashkilot yoki undan foydalangan shaxs o'rtasidagi javobgarlik chegaralarini aniqlash murakkab huquqiy vazifa bo'lib qolmoqda. Ikkinchi muhim yo'nalish shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va maxfiylik bilan bog'liq. Sun'iy intellekt tizimlarining samarali ishlashi katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishga asoslanadi. Bu esa shaxsiy hayot daxlsizligi, ma'lumotlarni yig'ishda rozilik tamoyiliga rioya etish hamda ularning xavfsiz saqlanishini ta'minlash kabi masalalarni yanada dolzarb qiladi. Yetarli huquqiy kafolatlar bo'lmagan sharoitda ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish yoki ularning sizib chiqishi xavfi ortadi. Yana bir muhim muammo — diskriminatsiya va adolatsizlik xavfidir. Sun'iy intellekt tizimlari mavjud ma'lumotlar asosida o'rganadi, agar ushbu ma'lumotlar tarkibida tarafkashlik yoki ijtimoiy notenglik aks etgan bo'lsa, algoritmlar ham shu holatni takrorlashi mumkin. Natijada, ayrim shaxslar yoki guruhlar ishga qabul qilish, kredit olish yoki boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega qarorlar jarayonida adolatsizlikka duch kelishi ehtimolini oshiradi. Shuningdek, qarorlar qabul qilish jarayonining shaffofligi va tushuntiriluvchanligi ham alohida talab qiladi. Ko'plab zamonaviy Sun'iy intellekt tizimlari murakkab algoritmlar asosida ishlaydi va ularning qaror qabul qilish mexanizmi oddiy foydalanuvchi uchun tushunarli bo'lmaydi. Biroq huquqiy davlat tamoyillariga ko'ra, shaxs o'ziga nisbatan qabul qilingan qarorning asoslarini bilish huquqiga ega bo'lishi zarur. Sun'iy intellekt texnologiyalarining amaliyotdagi ta'sirini ko'plab davlatlar misolida kuzatish mumkin. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasida



algoritmik tizimlarning noto'g'ri ishlashi inson huquqlari bilan bog'liq bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Masalan, ayrim shtatlarda jinoyatchilik xavfini prognoz qiluvchi dasturlar sud qarorlariga yordamchi vosita sifatida qo'llanilgan. Biroq keyinchalik ushbu tizimlar ayrim ijtimoiy guruhlariga nisbatan yuqori xavf darajasini ko'rsatgani va bu holat diskriminatsiya ehtimolini kuchaytirgani haqida tanqidlar bildirilgan.<sup>2</sup> Yana bir misol sifatida Niderlandiyada ijtimoiy nafaqa tizimida qo'llanilgan algoritmik nazorat mexanizmini keltirish mumkin. Ushbu tizim ayrim hududlarda yashovchi fuqarolarni avtomatik tarzda yuqori xavf guruhiga kiritgani sababli minglab oilalarga nisbatan asossiz tekshiruvlar o'tkazilgan. Keyinchalik tizim inson huquqlariga zid deb topilib, bekor qilingan hamda davlat organlari javobgarligi masalasi ko'tarilgan.

Yuqoridagi kabi yuz berayotgan muammolar inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shu sababli ko'plab davlatlar SI rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bilan birga uning xavf-xatarlarini kamaytirishga qaratilgan siyosiy va huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqmoqda. Bunday yondashuvning asosiy maqsadi — texnologik taraqqiyot va inson huquqlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashdir. Birinchi navbatda, davlatlar ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi hududida qabul qilingan umumiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari (GDPR) fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash jarayoniga qat'iy talablar qo'yadi. Ushbu hujjatga ko'ra, shaxsiy ma'lumotlar faqat aniq maqsadlar uchun va foydalanuvchining roziligi asosida yig'ilishi kerak. Bu esa SI tizimlarining nazoratsiz ravishda ma'lumotlardan foydalanishining oldini olishga xizmat qiladi. Ikkinchi muhim yo'nalish — Sun'iy intellektni risk asosida tartibga solishdir. 2024-yilda Yevropada qabul qilingan Sun'iy intellekt to'g'risidagi qonun loyihasi SI tizimlarini xavf darajasiga qarab tasniflaydi va ayniqsa inson huquqlariga yuqori ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tizimlarga nisbatan qat'iy talablar joriy etadi. Bu

<sup>2</sup> United Nations. Guiding Principles on Business and Human Rights. New York, 2011



yondashuv SI tizimlarining shaffofligi, xavfsizligi va javobgarligini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston tajribasida ham raqamli texnologiyalarni huquqiy tartibga solish bo'yicha muhim qadamlar qo'yilmoqda. Bunda inson huquqlarini himoya qilish Milliy markazining o'rnini ahamiyatga molik. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilish Milliy markazi 1996-yilda tashkil etilgan va davlatning inson huquqlari sohasidagi asosiy instituti hisoblanadi.<sup>3</sup> Markazning asosiy vazifasi milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, huquqbuzarliklarni kuzatib borish va odamlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini ishlashga kiritishdir. Hozirgi paytda raqamli texnologiyalar va Sun'iy intellekt keng qo'llanilmoqda va bu inson huquqlariga yangi tahdidlar tug'diradi. Shu sababli Milliy markaz bu texnologiyalarning salbiy oqibatlarini kamaytirish choralarini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi.

Markaz muntazam tadqiqotlar olib boradi, ekspertlar baholari va tavsiyalarini tayyorlaydi. Sun'iy intellektning inson huquqlariga ta'siri bilan bog'liq tavsiyalar asosida maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, algoritmlarda adolatsizlikning oldini olish va qarorlar shaffofligini oshirish ishlari qilinadi. Sun'iy intellekt tizimlari ko'p ma'lumotlarni qayta ishlaydi, shuning uchun Markaz "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunning to'g'ri ishlashiga e'tibor beradi. Shuningdek, fuqarolarning roziligi, ma'lumotlarni himoyalash va anonimlashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Sun'iyong algoritmlari tarfakash qarorlar chiqarishi mumkinligi sababli Markaz diskriminatsiya holatlarini aniqlash va kamaytirish choralarini ishlab chiqadi. Masalan, ishga qabul qilish, kredit berish yoki ijtimoiy yordam taqsimlash jarayonlarida adolatsizlik yuzaga kelmasligi uchun monitoring qilish muhim deb hisoblanadi. Shuningdek, qarorlar shaffof bo'lishi kerakligini ham ta'kidlanadi. Fuqarolar o'zlariga taalluqli qarorlarning asosini bilish huquqiga ega bo'lishi lozim. Shu sababli Markaz algoritmlar jarayoni va qarorlar manbaini tekshirish va ochiq qilish bo'yicha tavsiyalar beradi. Milliy markaz boshqa

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi Qonun. Tashkent, 2020



davlat organlari, ilmiy muassasalar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, yangi va keng ko'lamli loyihalar va yechimlar topishga harakat qiladi. Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi bilan birga Sun'iy intellektni tartibga soluvchi qonun loyihalar ishlab chiqildi. UNESCO va OECD kabi xalqaro tashkilotlarning Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiyalari asosida milliy tavsiyalar tayyorlandi<sup>4</sup>. Hozirda esa Markazning ekspertlari seminar va treninglarda SI texnologiyalarining huquqiy xavflari haqida odamlarni xabardor qilish maqsadida axborot kampaniyalari, tushuntiruvchi materiallar va talabalar hamda jurnalistlar uchun treninglar tashkil etmoqda. Bu ishlar odamlar o'z huquqlarini raqamli muhitda himoya qilishi uchun yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlarini himoya qilish Milliy markazining Sun'iy intellekt bilan bog'liq ishlari nafaqat muammolarni ko'rsatib beradi, balki ularni bartaraf etish bo'yicha aniq yechim va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Markazning 30-yilligi munosabati bilan olib borilayotgan ishlar milliy qonunchilikni takomillashtirish va xalqaro tajribalarni amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yunusov, O. Sun'iy intellektni tartibga solish va milliy qonunchilik. Tashkent, 2021.
2. Nazmutdinov, R. Pravovoe regulirovanie iskusstvennogo intellekta v Rossii. Moscow, 2020.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Universal Declaration of Human Rights (UDHR). 1948.
4. United Nations. Guiding Principles on Business and Human Rights. New York, 2011.
5. O'zbekiston Respublikasi. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi Qonun. Tashkent, 2020.

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlarini himoya qilish Milliy markazi. Tavsiya va hisobotlar. Tashkent, 2022.



6. O‘zbekiston Respublikasi. Raqamli O‘zbekiston – 2030 Strategiyasi. Tashkent, 2021.

7. O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlarini himoya qilish Milliy markazi. Tavsiya va hisobotlar. Tashkent, 2022.

8. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

9. <https://share.google/KU1450woyJr1Di9DF>